

«TASDIQLAYMAN»

Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti
rekтори профессор X.B.Yunusov
«» 2022 y.

**Axborot-resurs markazi Elektron axborot-resurs bo‘limi
NIZOMI.**

Asosiy qism.

1. Elektron axborot-resurs bo‘limi ARMning mustaqil bo‘limlaridan hisoblanib, bevosita ARM direktoriga bo‘ysinadi.

2. Bo‘lim ishlariga bo‘lim mudiri rahbarlik qiladi, uni mehnat shartnomasi bo‘yicha ARM direktorining tavsiyasiga asosan universitet rektori tomonidan ishga qabul qilinadi va undan ozod qilinadi.

3. Bo‘lim mudiri va xodimlarining vazifalari ARM direktori tomonidan tasdiqlangan lavozim yo‘riqnomalarida ko‘rsatilgan.

4. Bo‘limning ish rejasi ARMning ish rejasining tarkibiga kiradi.

5. Bo‘lim ish faoliyatida quyidagilarga:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta’minalashni etish to‘g‘risida”gi 2006 yil 20 iyundagi PQ-381-soni qaroriga, O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rtta maxsus ta’lim vasirligi buyrug‘lariga;

- O‘zbekiston Respublikasi axborot-resurs markazlari fondlarini saqlash haqidagi nizomga;

- Universitet va ARM rahbariyatining buyrug‘lari va farmoyishlariga;

- Universitetning ichki tartib qoidalariga va ushbu nizomga amal qiladi.

Asosiy funksiyalari.

1. ARMda mavjud amaliy axborot sistemalarining maqsadi faoliyat ko‘rsatishini ta’minalash.

2. ARMning boshqa bo‘limlarida mavjud dasturiy vositalar va texnologiyalarning maqsadi va samarali ishlatalishi bo‘yicha nazorat olib borish.

3. ARMdagi amaliy dasturiy ta’mot va texnik vositalarining doimiy ishlashini ta’minalash, ularga yuzaga kelgan nosozliklarni tuzatish choralarini ko‘rish.

4. ARMning boshqa oliy ta’lim muassasalari ARMiari bilan dasturiy vositalar va amaliy axborot sistemalari faoliyati bo‘yicha hamkorlik qilish.

5. ARM xodimlarining axborot texnologiyalari va amaliy axborot sistemalari yo‘nalishi bo‘yicha malaka oshirish va qayta tayyorlanishi masalalarida uslubiy rahbarlikni amalgga oshirish.

6. ARMning axborot-texnik rivojlanishi bo‘yicha rahbariyatiga asoslangan takliflar bilan murojaat qilish.

7. ARM bo‘limlarining foydalanuvchilar uchun zarur axborotlarini aloqaning elektron kanallari bo‘yicha mustaqil yuborish va qabul imkoniyalarini yaratish.

8. Bo‘lim faoliyaiga oid barcha xujjalalar va axborotlarni yuritish.

9. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari doirasida, bo‘lim faoliyati davomida hosil bo‘lgan arxiv xujjalarni po‘yxatga olish, ulardan foydalanish, ularni saqlash hamda ularni butlash ishlarini oshirish.

Asosiy vazifalari.

1. ARMda mavjud amaliy axborot sistemalarini rivojlantirish va mukamallashirish.

2. “IRBIS” dasturini o‘rganish va ishda joriy qilish.

3. ARMda fondda mavjud adabiyotlarni elektron shaklga o‘tkazish, skanerlash.

4. ARMda mavjud lokal tarmoqda foydalaniladigan amaliy axborot sistemalarining doimiy faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash.

5. ARM lokai tarmog‘ining universitet tarmog‘i bilan doimiy aloqasini ta’minlash va foydalanuvchilarga universitet kafedralari, bo‘limlari kompyuterlarida zarur bo‘lgan axborot va ma’lumotlarni olish imkoniyatini yaratish.

6. ARMning boshqa bo‘limlari bilan hamkorlikda ular foydalanayotgan dasturiy vositalar va texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha amaliy ishlar bajarish.